

YAQIN SHARQDA QATAR SIYOSATINING ZAMONAVIY HOLATI

Sh.Z.Davlatova.

*Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti “Tashqi siyosat va Xalqaro iqtisodiy aloqalar instituti” fakulteti “Xalqaro munosabatlar” yo`nalishi
2- bosqich arab-ingliz gruh talabasi. davlatovashodiyona@gmail.com*

Annotatsiya: Mazkur maqola, Qatar siyosatining Yaqin Sharq hududidagi roli. Shu jumladan, davlat yuksalishining tashqi va ichki omillari haqida xulosa chiqariladi, Qatarning Yaqin Sharq mintaqasida arab bo‘lmagan davlatlar: Turkiya, Eron va Isroil bilan munosabatlari tashqi siyosatninig muhim va ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi

Аннотация: Эта статья о роли катарской политики в ближневосточном регионе. Кроме того, делается вывод о внешних и внутренних факторах подъема государства, отношениях Катара с неарабскими странами ближневосточного региона: Турция, Иран и Израиль считаются одними из важных и приоритетных направлений внешней политики.

Ключевые слова: внешняя политика, факторы влияния, Ближний Восток, напряженность, Маленький гигант, современная реформа

Abstract: This article is about the role of Qatari politics in the Middle East region. In addition, a conclusion is made about the external and internal factors of the state's rise, Qatar's relations with non-Arab countries in the Middle East region: Turkey, Iran and Israel are considered one of the important and priority directions of foreign policy.

Key words: foreign policy, influencing factors, Middle East, tension, Little giant modern reform

Yaqin Sharq allaqachon ilm-fan va tarixda yaxshi tanilgan tushuncha. O‘rta asrlarda va zamonaviy davrda Evropaga yaqin bo‘lgan Sharq hozirgi davr bilan taqqoslaganda bir xil mintaqani bildiradi. Shu bilan birga, o‘zgaruvchan atrof-muhit, mintaqadagi va dunyodagi vaziyat, shuningdek, ilm-fan rivoji mintaqaga chegaralari va hatto uning belgilanishi bilan bog‘liq kelishmovchiliklarni oldindan belgilab qo‘ydi. Bir qator arab olimlarining fikriga ko‘ra, O‘rta Sharq atamasi mintaqaga Kipr yoki Afg‘oniston kabi arab bo‘lmagan mamlakatlarni kiritish uchun yaratilgan. Bu, birinchidan, an‘anaviy «arab dunyosi» tushunchasidan uzoqlashishini, ikkinchidan, zamonaviy dunyo tartibida G‘arbning markaziy rolini namoyish etadi. Ushbu nuqtai nazarni qo‘llab-quvvatlovchilar G‘arbgga qaraganda mintaqaning turli xil xususiyatlarini ta’kidlab, Yaqin Sharq o‘miga «Arab dunyosi» yoki «Arab mintaqasi» atamasidan foydalanishni afzal ko‘rishadi [Ahmadullin V. 2014url],

Arabiston yarimorolidagi kichik davlatdan dunyodagi eng boy mamlakatlardan biriga aylangan Qatar oxirgi ikki o‘n yillikda Fors ko‘rfazi mintaqasi va Yaqin Sharqda o‘ziga xos o‘rin egallashga muvaffaq bo‘ldi. Qatar bugungi boy davlatga aylanish uchun Britaniya protektorati sifatida o‘zining ildizlaridan uzoq yo‘lni bosib o‘tdi. U jahon miqyosida obro‘-e’tibor qozonish uchun o‘zining neft va gaz sanoatidan tushgan katta daromadlardan

maksimal darajada foydalandi va foydalanib kelmoqda. Uning o'ziga xosligini shundan ko'rish mumkinki, Qatarining rasmiy poytaxti bo'lgan Dohaning na ichki, na tashqi siyosatini muxtasar bir jumla bilan ta'riflab bo'lmaydi. Biror bir hudud, biror bir masala, biror bir ixtilofga Qatar xech qachon o'z e'tiborini davomiy qaratmagan. Uning tashqi siyosati doimo o'zgarishda va oldindan bashorat qilib bo'lmaydi

Qatar-Turkiya Respublikasi munosabatlari. Qatarining Yaqin sharq mintaqasidagi siyosatida Turkiya muhim o'ringa ega. Aynan Qatar va Turkiyaning Yaqin Sharq mintaqasida Saudiya Arabistoni, Misr, BAAGA nisbatan geostrategik raqobatlaridagi o'xshashlik o'zaro ikki davlat aloqasini mustahkamlamoqda. Qatar va Turkiyaning arab mintaqasida, ayniqsa Misr, Liviya inqirozi, shuningdek, Suriya fuqarolar urushida yetakchilik mavqeini mustahkamlash borasidagi birgalikdagi sa'y-harakatlari ularning munosabatlarini ittifoq sifatida tavsiflash mumkinligiga olib keldi¹⁵.

Qatar mustaqillikka erishgandan bir-yil o'tib, 1972-yilda Qatar Davlati va Turkiya Respublikasi o'rtasida elchilar darajasida diplomatik munosabatlar o'rnatildi. Keyinchalik Qatar hukumati 1979-yilda Anqarada o'z elchixonasini ochdi. O'sha-yili Dohada Turkiya elchixonasi ochildi. 1980-yillarda ikki davlat o'rtasida ikki tomonlama shartnomalar imzolana boshladi. 1 Al-Haj S. Turkey and Qatar 216 Ikki davlat o'rtasida birinchi texnik va iqtisodiy hamkorlik to'g'risidagi shartnoma 1985-yilda imzolangan². Qatar amiri Hamad bin Xalifa Ol Soniyning 2001-yil 25-26-dekabr kunlari Turkiyaga tashrifi o'zaro soliqqa tortishni to'xtatish, sarmoyalarni o'zaro rag'batlantirish va himoya qilish to'g'risidagi bitimlarni imzolash orqali iqtisodiy va harbiy hamkorlikning huquqiy asoslarini yaratishga zamin yaratdi. 2002-yil iyul oyida Qatar va Turkiya o'rtasida harbiy tayyorgarlik sohasida hamkorlik to'g'risidagi bitim, shuningdek, mudofaa sanoati sohasida o'zaro anglashuv memorandumini imzolandi. Bu mudofaa sohasida hamkorlikning asosiy sabablaridan biri Saudiya Arabistoni tomonidan 1995-yildagi Qatar amiri Xamadan – at-Tanini hokimiyatdan ag'darishga urinish bo'lgan. 1916-yilda Qatar Britaniya protektoratiga aylantiriladi va Abdulla al-Tani hududni faqat

inglizlarga berish mumkinligi haqidagi shartnomani imzoladi. Bu shartnoma esa dengiz orqali har qanday tajovuzdan himoya qilish va quruqlik hujumida yordam berish evaziga amalga oshdi. 1970-yillarning boshida Qatar Birlashgan Arab Amirliklarining bir qismi bo'lish uchun qo'shni davlatlarga qo'shilishi kerak edi. Biroq, Bahrayn bilan birga buni rad etib, o'rniga mustaqil davlat tuzdi va Qatar 1971-yil 3-sentabrda o'z mustaqilligini e'lon qildi. Qatar islom aqidasi, madaniyati bilan bir vaqtda g'arbona qarashlarni ham o'zida singdirgan alohida bir davlat. Mamlakat Yaqin Sharqning boshqa davlatlaridan farqli o'laroq anchayin demokratik-liberal ruhda yashasa ham, ichki va tashqi siyosat mutlaq hukmron oila,

aniqrog'i, amirning qo'lida to'plangan. Aynan amir mamlakatning barcha hayotiy yo'nalishlarini belgilab beradi. Qatarining hozirgi tashqi siyosati sobiq amir Hamad bin

¹⁵ Al-Haj S. Turkey and Qatar look to be building a new alliance // Middle East Monitor. 15 March 2015 - <https://www.middleeastmonitor.com/20150315-turkey-and-qatar-look-to-be-building-a-new-alliance/>

Xalifa al-Tani tomonidan shakllantirilgan. Hamad bin Xalifa al-Tani 1995-yil iyunida o‘z otasi Abdulla bin Nosir bin Xalifa al-Tanini hokimiyatdan ag‘daradi. Qatar siyosiy jihatdan konstitutsiyaviy monarxiyadir, lekin aslida hukmdor (amir) qonunlarni tasdiqlash yoki rad etish uchun ijro etuvchi hokimiyatga ega. Amir o‘zining Bosh vazirini (odatda u oila a‘zosidan tayinlanadi) va qonun chiqaruvchi organlar a‘zolarini tayinlaydi. Va natijada, u har qanday qonunlar bo‘yicha yakuniy qarorni o‘zi qabul qiladi[1]. Qatarning amaldagi amiri Hamad bin Xalifa al-Tanining hokimiyatdagi roli katta va Vazirlar Kengashini chaqirish va diplomatik xodimlarni tayinlashdan tortib, qonunlarni ratifikatsiya qilish va amnitsiyalar berishgacha bo‘lgan vazifalar uning qo‘lida to‘plangan. Xold bin Xalifa bin Abdulaziz - Qatarning amaldagi Bosh vaziri. Uning asosiy vazifasi Qatar hukumatining asosiy bo‘linmalari o‘rtasida birlikka erishish maqsadida Vazirlar Kengashi majlislariga raislik qilish va Kengash nomidan qarorlarni imzolashdan iborat. Qatarda saylov tizimi ham to‘liq munitsipial tizimga o‘tkazilgan deb aytish mumkin. 2021- yil oktabr oyida 45 o‘rinli Sho‘ro kengashining 30 a‘zosini saylash uchun mamlakat tarixidagi birinchi qonunchilik saylovlari bo‘lib o‘tdi. Bu kengash amirga maslahatchi sifatida rol o‘ynaydi va mudofaa, xavfsizlik, iqtisodiy va sarmoyaviy masalalar bo‘yicha cheklangan vakolatlarga ega. Shuningdek, 29 a‘zodan iborat Markaziy shahar kengashiga saylovlar bo‘lib o‘tadi. CMC(Central municipal council) ovoz berish har to‘rt yilda bo‘lib o‘tadi, bu esa aholiga o‘z mahalliy vakillarini tanlash imkonini beradi[2]

Big politics (katta siyosat): Qatar iqtisodiyotidagi eng muhim o‘zgarish 1940-yillarda katta neft zaxiralarining topilishi bilan sodir bo‘ldi. Bu mamlakatga misli ko‘rilmagan boylik olib keldi. Bugungi kunga kelib, davlat eksport daromadining qariyb 85 foizi neftdan tushadi. Bu esa dunyodagi aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan eng yuqori daromadlardan biridir. Qatar o‘z mamlakatida va jahon miqyosida iqtisodiy muvaffaqiyatlarga erishganiga qaramay, yaqinda o‘z tarixidagi eng katta inqirozlardan birini boshdan kechirdi. 2017-yil iyun oyida uning to‘rt qo‘shnisi – Saudiya Arabistoni, Bahrayn, Misr va BAA Qatarni birin ketin bloklay boshladi. Ushbu bloklashlar ortida, mamlakat terrorchi guruhlariga xayrixohlik bildirishda ayblovlar turardi. Qatar importining 60% ga yaqini ushbu davlatlar bilan bevosita bog‘liqligi va bu davlatlarning savdo qilishdan bosh tortganligi o‘z kuchini tezda ko‘rsata boshladi. Qatar fuqarolari ham qo‘shni davlatlardan chiqarib yuborildi. Natijada, diplomatik vositachilik orqali 2021- yilda blokada qilish yakunlandi. So‘nggi yillarda Qatar tobora jahon arenasida munosib o‘rin egallamoqda. U 2022-yilda futbol bo‘yicha jahon chempionatiga mezbonlik qiladi. Ushbu chempionat orqali Qatar dunyo hamjamiyatidagi o‘rnini mustahkamlab olishni ko‘zlagan. Chempionatga tayyorgarlik uchun Qatar 200 mlrd AQSh dollari miqdorida mablag‘ ajratishni e‘lon qilgan. Jahon chempionatiga tayyorgarlik Qatarning iqtisodiy muvaffaqiyatlari sari o‘z yo‘lini qurishga intilayotganini ko‘rsatadi. Doha yaqinida joylashgan yangi Lusayl shahri poytaxtdan so‘ng o‘zgarishlarning markazida turibdi. Natijada ushbu shaharni rivojlantirish dasturi doirasida 200 milliard dollarlik infratuzilmani rivojlantirish dasturi ishlab chiqilgan. 2021-yilgi Iqtisodiy erkinlik indeksiga ko‘ra, Qatar dunyodagi eng erkin mamlakatlar ichida 44-o‘rinda, hukumat yaxlitligi va pul erkinligi bo‘yicha esa undan ham yuqori o‘ringa egaligi ko‘rsatilgan[2].

“Niche diplomacy” yoki “o‘z o‘rnini topish diplomatiyasi”: “Niche diplomacy” yoki “o‘z o‘rnini topish diplomatiyasi” Hamad bin Xalifa al-Tani tomonidan 18 yil davomida olib borildi. Amir o‘zining kichik davlatining ahamiyatini dunyoga isbotlash uchun “yumshoq kuch” (soft power)dan faol foydalana boshladi. Bunga misol qilib, Afg‘oniston barqarorligini ta‘minlashda ishtirok etish, xususan Yaman, Sudan, Livan, Afrika Burni kabi hududlardagi ixtiloflarni tinch yo‘l bilan hal etish yo‘lidagi harakatlar birinchisi bo‘ldi[2]. Qatarning Afg‘oniston barqarorligini ta‘minlashdagi o‘rni haqida gapiradigan bo‘lsak, garchi Afg‘oniston Qatar tashqi siyosatida markaziy o‘rin egallamasada, Afg‘on muammosini hal qilishdagi ishtirok Qatarning xalqaro maydondagi o‘rni va ambitsiyalarini ochib beradi. Mintaqaviy va xalqaro muammolarda vositachi rolini o‘tash 2008-yilda Hamad bin Xalifa alTani tomonidan e‘lon qilingan “Qatar National Vision 2030” nomli 20 yilga mo‘ljallangan milliy dasturda o‘z aksini topgan. Dasturga ko‘ra, Qatar mintaqada Fors Ko‘rfazi Kengashi, Arab Ligasi va Islom Konferensiyasi Tashkiloti doirasida iqtisodiy, siyosiy va madaniy rolini oshirish hamda siyosiy tashabbuslar va insonparvarlik tamoyili orqali xalqaro tinchlik va barqarorlikka xissa qo‘shishda davom etishi ko‘zda tutilgan. Aslida Qatarning o‘zgaruvchan va arab-islom dunyosida ajralib turuvchi ichki va tashqi siyosati uning geosiyosiy joylashuviga ham qisman bog‘liqdir. Chunki qudratli bo‘lgan qo‘shnilar, Saudiya Arabistoni, Eron, BAA, Ummon tomonidan o‘rab olingan va dunyodagi eng notinch mintaqada joylashgan hamda yagona oila tomonidan boshqariladigan Qatar uchun xavfsizlik doimo birinchi o‘rinda bo‘lib kelgan. Rivojlanayotgan mamlakatlar ro‘yxatiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, neft eksport qilish bo‘yicha aholi jon boshiga YaIM 10 dan 20 ming dollargacha yetishi mumkin. Ushbu ro‘yxatdan esa Saudiya Arabistoni, BAA, Eron, Quvayt, shuningdek, Bruney, Liviya va tabiiyki Qatar davlatlari o‘rin olgan[3]

Ikki davlat o‘rtasida birinchi texnik va iqtisodiy hamkorlik to‘g‘risidagi shartnoma 1985-yilda imzolangan¹⁶. Qatar amiri Hamad bin Xalifa Ol Soniyning 2001-yil 25-26-dekabr kunlari Turkiyaga tashrifi o‘zaro soliqqa tortishni to‘xtatish, sarmoyalarni o‘zaro rag‘batlantirish va himoya qilish to‘g‘risidagi bitimlarni imzolash orqali iqtisodiy va harbiy hamkorlikning huquqiy asoslarini yaratishga zamin yaratdi. 2002-yil iyul oyida Qatar va Turkiya o‘rtasida harbiy tayyorgarlik sohasida hamkorlik to‘g‘risidagi bitim, shuningdek, mudofaa sanoati sohasida o‘zaro anglashuv memorandumini imzolandi. Bu mudofaa sohasida hamkorlikning asosiy sabablaridan biri Saudiya Arabistoni tomonidan 1995-yildagi Qatar amiri Xamadan – at-Tanini hokimiyatdan ag‘darishga urinish bo‘lgan. Mamlakatlar o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlashda “Musulmon birodarlar” harakati muhim rol o‘ynadi, bu ham Qatar islomchilari, ham Turkiya islomchilari bilan yaqin aloqalar o‘rnatishda ifodalangan. Keyinchalik “Musulmon birodarlar”ning mo‘tadil islomchiligi Turkiya va Qatar hukumatlari o‘rtasida umumiy tashqi siyosat yo‘nalishini barpo etishda mafkuraviy asos bo‘ldi. Turkiya bilan yaqinlashishga urinishlar Qatar tomonidan “Adolat va tarqquiyot” partiyasi va R.T.Erdog‘on hokimiyatga kelishidan oldin ham bo‘lgan. Bu, asosan,

¹⁶ Хайруллин Т. Формирование Катарско-Турецкого Альянса // Азия и Африка сегодня. — 2019. — №4. — С.30

Saudiya-Qatar munosabatlaridagi 1990-yillardagi keskinlashuv bilan bog'liq edi Saudiya Arabistonining 1992-yilda Qatarga bostirib kirishga urinishi va 1995- yilda Shayx Hamadni ag'darishga bo'lgan muvaffaqiyatsiz urinish Qatar hukmron oilasiga ruhiy jarohatlar yetkazdi. Ular uchun Saudiya Arabistoni xavfsizligi uchun asosiy tahdidga aylandi¹⁷. Bu Qatarni Yaqin Sharqdagi ittifoqchilarni Fors ko'rfazidan tashqarida izlashga majbur qildi. Qatar amiri Hamad bin Xalifa Ol Soniyning 2001-yil 25-26-dekabr kunlari Turkiyaga tashrifi qator kelishuvlarni imzolash orqali iqtisodiy va harbiy hamkorlikning huquqiy asoslariga zamin yaratdi. Ushbu bayonnomalar ikki tomonlama soliqqa tortishning oldini olish to'g'risidagi bitim, Sarmoyalarni o'zaro rag'batlantirish va himoya qilish to'g'risidagi bitim, Harbiy sohada hamkorlik to'g'risidagi bitimlardan iborat edi. 2002-yil iyul oyida Qatar va Turkiya o'rtasida harbiy tayyorgarlik sohasida hamkorlik to'g'risidagi bitim, shuningdek, mudofaa sanoati sohasida o'zaro anglashuv memorandumini imzolandi.¹⁸

Iqtisodiy aloqalarga ko'ra, 2018-yil yakuniga ko'ra ikki davlat o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 2017-yilga nisbatan 57 foizga o'sib, 1,4 milliard dollar darajasiga yetdi. Hozirda Qatarda 180 dan ortiq turk shirkati faoliyat yuritmoqda va turk kompaniyalari tomonidan Qatarda amalga oshirilgan loyihalarning umumiy qiymati 17,4 milliard dollar darajasiga yetdi. Bundan tashqari, Qatar turk pudratchilari tomonidan amalga oshirilgan loyihalar soni bo'yicha Fors ko'rfazi davlatlari orasida birinchi o'rinda turadi. Qatarning Turkiyaga kiritgan sarmoyalari hajmi ham barqaror ravishda ortib bormoqda. Turkiyaning Qatar bilan aloqalarini chuqurlashtirishga muvofiq, Turkiya qatarlik sayyohlar uchun muhim manzilga aylandi¹⁹. 2020-yil may oyida Qatar moliyaviy barqarorlik va savdoni qo'llab-quvvatlash maqsadida o'zining ilgari belgilangan kelishuvini uch barobarga oshirib, uni o'n besh milliard dollarga ko'tardi. Keyingi noyabr oyida Qatar amirining Turkiyaga tashrifi chog'ida ikki davlat o'nta yangi bitimni imzoladi.²⁰ Rivojlanayotgan Qatar-Turkiya ittifoqi ancha katta salohiyatga ega. Darhaqiqat, o'zining ulkan iqtisodiy, demografik va harbiy salohiyatiga (Eron, Saudiya Arabistoni yoki Misr bilan solishtirish mumkin) qaramay, Turkiya (arab bo'lmagan davlat sifatida) asosan arablar yashaydigan mintaqada mintaqaviy yetakchilikka erishish uchun hech qanday real imkoniyatga ega emas. Boshqa tomondan, Qatar o'zining ulkan moliyaviy resurslari va inkor etib bo'lmaydigan arab o'ziga xosligiga qaramay, mintaqada yetakchilik mavqeini egallashga jiddiy urinishlar qilish uchun

¹⁷ Yaghi M.A Comparative Analysis of the role of Saudi Arabia, Qatar and United Arab Emirates in the Syrian Crisis / Paper presented at 2018 Gulf Research Meeting. 31 July - 3 August 2018. – University of Cambridge, 2018. – P.22.

¹⁸ Al-Harmi J. Qatar and Turkey ... Relations that transcend traditional diplomatic frames // YeniSafak. 10 September - <https://www.yenisafak.com/en/news/qatar-and-turkey-relations-that-transcend-traditional-diplomatic-frames-2297729> - 15.12.2018

¹⁹ Turkey-Qatar Economic and Trade Relations // https://www.mfa.gov.tr/turkey_s-commercial-and-economic-relations-with-qatar.en.mfa

²⁰ Meliha Benli Altunışık. The end of the Gulf rift may not signal the end of Turkey-Qatar relations // <https://www.atlanticcouncil.org/blogs/turkeysource/the-end-of-the-gulf-rift-may-not-signal-the-end-of-turkey-qatar-relations/> - April 5, 2021

juda kichikdir. Shu sababdan Qatar-Turkiya alyansini shakllantirish geosiyosiy zarurat hisoblanadi.

Qatar-Eron Islom Respublikasi munosabatlari.

Qatarning Fors Ko‘rfazi arab monarxiyalari tomonidan ma‘qul ko‘rilmaydigan tashqi siyosatining yo‘nalishlaridan biri Eron Islom Respublikasi bilan aloqalaridir. Eron 1972-yilgi davlat to‘ntarishidan so‘ng amir Xalifa bin Hamad Ol-Soniy hokimiyatini tan olgan birinchi davlatlardan biri hisoblanadi. Bu vaqtda Eronda Paxlaviylar sulolasi hokimiyatda edi. Mamlakatlar o‘rtasidagi munosabatlar qisman geografik yaqinlik va o‘zaro manfaatlarga asoslanadi. Shu bois Qatar FKADHKga a‘zo bo‘lsada, BAA va Saudiya Arabistoni qaraganda Eronning ichki va tashqi siyosatini keskin tanqid qilish siyosatini olib bormaydi. Ikki davlat o‘rtasida yaqin iqtisodiy aloqalar mavjud bo‘lib, bu ularning diplomatik munosabatlariga, xususan, neft va gaz sanoatiga ta‘sir qiladi. Qatar neftining katta qismi Eron bilan bog‘liq bo‘lgan kondan keladi. Eron va Qatar dunyodagi eng yirik tabiiy gaz konini birgalikda nazorat qiladi. Qatar dunyodagi jami tasdiqlangan gaz zahiralarining 13 foiziga egalik qiladi. Qatar konning o‘z qismidan kuniga 650 million kubometr gaz qazib oladi, Eron esa xuddi shu kondan kuniga 430 million kubometr gaz qazib oladi. Bu kon Qatar Shimoliy Pars, Eronda Janubiy Pars deb nomalanadi. Eron va Qatar neft va tabiiy gaz sohasidagi aloqalardan tashqari, yuk tashish sohasida ham hamkorlik qiladi. Eron-Iroq urishida Qatar davlati Iroqni qo‘llab-quvvatladi. Natija 1989-yil may oyida Eron Qatardan Shimoliy/Janubiy Pars supergigant neft va gaz konining 1/3 qismini talab qildi, tomonlar kondan birgalikda foydalanish bo‘yicha kelishuvga erishdilar. Shuningdek, “Sovuq urush”dan keyin Qatar Eronni Fors ko‘rfazidagi mintaqaviy xavfsizlik tizimiga jalb etishga intildi va 1991-yil ikki tomonlama shatnoma imzolandi. Ushbu kelishuv arab monarxiyalari tomonidan jiddiy qarshilik bois amalga oshmadi. 1992-yilda Karun daryosidan Erondan Qatarga suv yetkazib rejalashtirildi va bu oxiriga yetmadi. Qatar Eron birgalikda gaz qazib olish borasida birgalikda faoliyat yuritsha intiladi. 2009-yil 11-yanvarda uch davlat (Qatar, Eron va Rossiya) vakillari Tehronda uchrashib, o‘zlarining gaz zaxiralarini ishlab chiqarish bo‘yicha kelishib oldilar. Garchi tomonlar o‘z geosiyosiy maqsadalarini ilgari surishsada, umumiy kelishuv jahon gaz bozorida o‘z o‘rniga ega bo‘lishga qaratilgan. COVID-19 pandemiya davrida Qatar ikki marta 2020 mart va 2021-yil sentyabrda Eronga yordam yubordi. 2022-yilning 12-aprelida Eron Qatarda bo‘lib o‘tadigan futbol bo‘yicha jahon chempionati muxlislarini qabul qilish maqsadida Qatar bilan bir qator kelishuvlarga erishdi. Qatar axborot agentligining xabar berishicha, ikki davlat Doha Flight Information Region (FIR)ni Tehron FIR bilan bog‘lash bo‘yicha operatsiyalar bo‘yicha kelishuv imzolagan. Shuningdek, ular o‘rtasidagi reyslar sonini kengaytirishga kelishib oldilar va transport hamkorligini yaxshilash yo‘llari va port sektorida xususiy sarmoyaviy

istiqbollar haqida muzokaralar olib borildi²¹. Qatardagi Eron jamiyati anchagina katta, ammo bu jamiyatga integratsiyalashgan va hukmron rejimga tahdid solmaydi. Boisi Qatar xavfsizligi bevosita AQSh va Saudiya Arabistoni bilan bog‘liqdir. Bugungi kunda Qatar va Eron o‘rtasida taranglik holatlari ham mavjud. Hatto Qatar 2016-yilda Eron bilan diplomati aloqalarni uzdi. Sababi: Birinchidan, Saudiya Arabistoni bosimi kuchliligi va asosiy hamkorlari bo‘lgan Fors Ko‘rfazi monarxiyalari manfaatlarini hisobga olish. Mazkur davlatlar Qatarining Eron siyosatini muntazam jiddiy tanqid qilishadi. 2017-yil Qatar inqirozi va uning doirasida Eron bilan aloqalarni uzish talabi qo‘yilishidan ham buni kuzatish mumkin.; Ichinchidan, Suriyadagi Eron-Qatar raqobati. Ikki tomon ham qarama-qarshi pozitsiyada turishi. Shu sababi ham 2021-yilda Suriya muammosini hal qilish bo‘yicha Ostona formati: Rossiya-Turkiya-Eron o‘rniga yangi Rossiya-Turkiya-Qatar formati shakllantirildi.²² Biroq 2017-yilda qayta tikladi. 2018-yil avgust oyida Eron prezidenti Hasan Ruhoniy Qatar amiri Tamim bin Hamad Ol Tani bilan muzokaralar o‘tkazdi va Saudiya Arabistoni va uning ittifoqchilari bilan hozirgi qarama-qarshilikda Qatarni so‘zsiz qo‘llab-quvvatlashini tasdiqladi. Lekin tovar aylanmasi bugungi kunda ancha kam- 2017-yilgi ma’lumotlarga ko‘ra 250 million dollarni tashkil etadi. Dohaning Tehron bilan normal munosabatlarni saqlab qolish istagi sabablari ham iqtisodiy, ham siyosiydir. Ma’lumki, Qatarining iqtisodiy farovonligi suyultirilgan gaz (SNG) eksportiga asoslanadi. Shu bilan birga, eronliklar va qatarlar Fors ko‘rfazining shelfidagi bir xil gaz konini (eroncha variantda – Janubiy Pars, Qatar variantida – Shimoliy gumbaz) o‘zlashtirmoqda. Eron bilan munosabatlarning har qanday keskinlashishi Qatar iqtisodiyotiga salbiy ta’sir qiladi. Qolaversa, “Saudiya gegemonligi”dan cho‘chigan Qatarining hukmron oilasi Eronni kelajakda o‘z xavfsizligi kafolatlaridan biri sifatida ko‘radi.²³

Isroil bilan aloqalar. Qatar 1990-yillarning o‘rtalaridan beri Isroil bilan yuqori darajadagi aloqalarga ega. U 1996-yilda Isroilning o'sha paytdagi Bosh vaziri Shimon Peresning tashrifiga mezbonlik qilgan va Isroilga 2000-yildan 2009-yilgi Isroil-Hamas mojarosi boshlanmaguncha Dohada rasmiy savdo ofisini ochishga ruxsat bergan. Xabar qilinishicha, kichik miqyosdagi to'g'ridan-to'g'ri Isroil-Qatar savdosi, shuningdek, Isroil

²¹ Iran hoping to host World Cup fans after agreement with Qatar //

<https://www.aljazeera.com/news/2022/4/12/iranpreparing-to-host-world-cup-fans-after-agreement-with-qatar> - 12.04.2022

²² Россия, Турция и Катар создали новый формат по урегулированию в Сирии //

<https://iz.ru/1135809/2021-03-11/rossiia-turtcia-i-katar-sozdali-novyi-format-po-uregulirovaniu-v-sirii> - 11 марта 2021

²³ Кузнецов А.А. Разногласия между государствами Совета сотрудничестве арабских государств Персидского Залива как фактор изменения политической ситуации в регионе Ближнего Востока. // Международная аналитика. – 2017. – №.2. – С.72.

xavfsizlik amaldorlari, sportchilar, shifokorlar va boshqa isroilliklarning Dohaga tashriflari o'sha to'qnashuvdan keyin ham davom etgan. Shu bilan birga, Amir Tamim muntazam ravishda Isroilni falastinliklarni suiiste'mol qilishda ayblaydi va Falastinning Birlashgan Millatlar Tashkilotiga to'liq a'zo bo'lish va tan olinishi yo'lidagi sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlaydi. Qatar rasmiylari IsroilFalastin mojarosini hal qilishda sezilarli muvaffaqiyatga erishmaguncha, Isroil bilan munosabatlarni normallashtirishda BAA va Bahraynga qo'shilishdan voz kechishlarini aytishdi. Qatar 2007-yildan beri G'azo sektorini amalda nazorat qilib kelayotgan "Musulmon Birodarlar"ning sho'basi bo'lgan va AQSh tomonidan belgilangan terrorchilik guruhi bo'lgan Xamas guruhi bilan aloqada. Xamasning yuqori rahbarlarining ba'zilari Dohada joylashgan va uning siyosiy byurosining amaldagi rahbari Ismoil Haniya 2020-yilda u erga ko'chib o'tgan. Qatar 2021-yilning may oyida Isroil va XAMAS o'rtasidagi o'n bir kunlik to'qnashuvlarga barham berishda asosiy vositachi bo'lgan va bu qisman G'azoga qo'shimcha yordam va'dalari bilan yordam bergan.²⁴

XULOSA

Xulosa qilib ayganda, rivojlanayotgan Qatar-Turkiya ittifoqi ancha katta salohiyatga ega edi. Darhaqiqat, o'zining ulkan iqtisodiy, demografik va harbiy salohiyatiga (Eron, Saudiya Arabistoni yoki Misr bilan solishtirish mumkin) qaramay, Turkiya (arab bo'lmagan davlat sifatida) asosan arablar yashaydigan mintaqada mintaqaviy yetakchilikka erishish uchun hech qanday real imkoniyatga ega emas edi. Boshqa tomondan, Qatar o'zining ulkan moliyaviy resurslari va inkor etib bo'lmaydigan arab o'ziga xosligiga qaramay, mintaqada yetakchilik mavqeini egallashga jiddiy urinishlar qilish uchun juda kichikdir. Qolaversa, "arab bahori" voqealaridan bir necha-yil avval biz "Musulmon birodarlar"ning mo'tadil islomchiligiga asoslangan Qatar-Turkiya ittifoqining aniq konturlari shakllanganini ko'ramiz.

Bundan tashqari, faqat geografik "kichik" davlat hisoblangan Qatar endilikda mintaqaviy miqyosda muhim o'yinchiga aylandi, nafaqat xalqaro darajada ham. Bu bilan birga faol tashqi siyosat kurs asosiy omillar edi. Bu esa samaradorlik o'z resurslarini muvaffaqiyatli taqsimlashning kalitidir xalqaro maydondagi ta'sirini kengaytirish. Mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Qatar jamiyatini isloh qilish, balki hujum strategiyasini ishlab chiqish o'zgarishlarga hissa qo'shgan mamlakat tashqi siyosatida Qatar Yaqin Sharq va xalqaro miqyosda nufuzli o'yinchiga aylandi.

²⁴ Katzman K. Qatar: Governance, Security, and U.S. Policy // Congressional Research Service, R44533- <https://crsreports.congress.gov> - April 11, 2022

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. About Qatar’s Constitution. Qatar's Constitution - Legal Information (2003) <https://hukoomi.gov.qa/en/about-qatar/the-constitution>
2. Stephen Maunder “The government and Politicial system in Qatar” (2022.14.03) <https://www.expatica.com/qa/living/gov-law-admin/government-and-political-system-in-qatar-70986/>
3. Avaz Takhirov, Yaqin sharq ruknidan (2014.25.11) <https://geopolitika.uz/hududlar/yevrosiyo/yaqin-sharq/85-afg-on-muammosi-yechimi-qatarning-qo-lidami>
4. Bahodir Xo’jayev, O’zbekiston xalqaro islom akademiyasi tadqiqotchisi, O’zbekiston Qatar: hamkorlikning yangi uflari – YOSHLAR OVOZI (2021.22.04) <https://yoshlarovozi.uz/2021/04/22/ozbekiston-qatar-hamkorlikning>
5. Mehran Kamrava, Qatar: Small State, Big politics (Cornell University Press, 2015) <https://books.google.co.uz/books?hl=en&lr=&id>
6. QATAR TASHQI SIYOSATI RIVOJLANISHINING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI <https://www.supportscience.uz/index.php/ojhpl> , M .Qo’chqorov
7. Подъем Катара на международной арене: причины, факторы, последствия, А.С. Абу Хашаб, Н.С. Ахмедова ,2023 Vol. 15 No. 1 56–64
8. “Yaqin sharqda barqarorlikni ta’minlash bo’yicha Qatar siyosatining zamonaviy holat”i , M.X.Mamanazarova
9. “Yaqin Sharq mamlakatlari tashqi siyosatining asosiy yo`nalishlari va uning o`ziga xos xususiyatlari” ,G.SH. Qodirova